

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN LEKSIK-SEMANTIK HODISALAR

**Maxmudova Sevinchxon dilmurodjon qizi**

*QDPI qoshidagi Akademik litsey talabasi*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada Muhammad Yusuf hayoti va ijod yo'llari to'g'risida birozgina parchalar beriladi. Bundan tashqari esa "Onamga xat " deya atalgan she'ri va unda uchraydigan shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ya'ni, leksik-semantik hodisalarga oid misollar tahlil ostiga olinadi.*

**Kalit so'zlar :** *metafora, sinonim, antonim va omonimlar.*

O'zbek she'riyatining yuksak namoyonlaridan biri, O'zbekiston xalq shoiri qolaversa, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis deputati bo'lgan Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprel sanasida Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida oddiygina dehqon oilasida tavallud topgan. Jajjigina bo'lajak shoir maktabni a'lo baholarga bitiradi va u Respublika rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi.<sup>50</sup>

U she'riyat uchun yaratilgan edi, go'yo. Chunki bo'lajak shoirimiz, o'sha yerdayoq ilk ijodini boshlash maqsadida kitobxonlar jamiyatiga muharrir so'ngra musahhihlik faoliyati bilan shug'ullana boshlaydi. Barcha yirik shoirlar kabi Muhammad Yusuf ham tarjima faoliyati bilan shug'ullangan. Bu ishni u ifodali bajarib, o'z tarjimalariga katta mas'uliyat bilan yondashgan. O'zi ham tarjimaga yirik shoirlarning asarlari orqali o'rgangan bo'lsa-da, uning tarjimalari o'ziga xos ijod namunasi hisoblanadi.

Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hayotidagi har bir hodisa she'riyat edi. U go'yo, osmonlarda qanot qoqayotgan qush kabi juda yengil va yorqin hayot kechirgan. Ammo shoir hayoti juda erta uzilgan. Ijodiy pallasining parvoz vaqti uzilgan edi... SHoir 2001-yil 29-iyul kuni vafot etgan. Muhammad Yusuf kabi o'ta keng qamrovli, hissiyotlar va o'ylari chuqur shoir o'limini bir narsagina – undan meros qolgan va shubhasiz, o'zbek she'riyati rivojiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi she'rlarigina yupatadi.

Shoirning ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning she'rlari hayot va hayol o'rtasida yozilgan edi. Shu kungacha biz barcha she'rlarini yoshlik chog'imizdan boshlab yodlab, hirgoya qilib kelamiz. Jumladan: "Onamga xat " deya atalgan she'rini ham yoshligimizdan bilamiz. Bu she'rlarda o'xshatishlar, tashbehtar va so'zlarning qay darajada mohirona qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Men sizni o'ylayman shomu saharda,  
Ona, sog'insam ham bora olmayman,  
Tunlari charag'on shunday shaharda,  
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

<sup>50</sup> <https://arboblar.uz/uz/people/mukhammad-yusuf>

Ushbu misralar intiqlik va sokinlik orqali boshlanar ekan, yozilganligiga necha yil bo'lsa-da, o'z qiymatini yo'qotmadi. Buning sababi esa ona sog'inchi va bola hislari. Mazkur misralarda erta-yu kech onasini sog'inchi bilan yonishlarini, shu sog'inch uni yondirsa-da bora olmasli haqida so'z boradi.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,  
Hammaga ishondim, mana oqibat:  
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,  
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat.

Mazkur misralarda esa siz menga sevishni o'rgatdingiz, ammo insonlar bunga arzimaydi ekan deya boshlanadi. Ko'nglimni yora olmayman, ko'mildi sevgim, ko'ksimni kuydirdi nafrat kabi misralari esa metaforadan dalolat beradi. Adibimiz bu so'zlar uyg'unligiga katta ahamiyat bergan. Asl ma'noda ko'nglini yora olmasligini, ko'milgan sevgisi esa hali-hanuz ko'ksini kuydirishi bularning hammasi she'riyat bo'gidan terilgan o'xshatishlardir.

Metafora (gr.metaphora - ko'chirish) – nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi.<sup>51</sup>

Bu ikki misralarning yana bir sifatlarini anglashimiz mumkin. Ya'ni, antonimlardan ham foydalanligiga guvoh bo'lamiz. Kun va tun aynan shu misralarda qo'llangan antonimlardir.

Antonimiya (gr. antionymo- "zid nom") leksemalar orasidagi zidlik munosabatlaridir.<sup>52</sup>

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,  
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:  
Men – zangori yaylovda olis, bepayon,  
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...  
Mana, ketayapman tosh yo'lda ko'zim,  
Qadamim moshinlar yo'rg'asiga mos.  
Yig'lasam yupatib o'zimni o'zim,  
Pishqirib qo'yaman toychoqlarga xos.

Mazkur misralarda nazar solar ekanmiz, u bu sog'inchdan naqadar qiynaldiki, garchi u o'zini yolg'iz va kimsasiz sezayotgandi. Atrofidagi insonlar onasining o'rnini bosa olmasdi. Albatta hech bir zot onachalik mehribon va oqko'ngil bo'la olmaydi. Adibimiz onasining sog'inchidan ko'kka intildi, hatto ko'kdagi yulduzlar ham unga qarata kulganday bo'lganini o'z she'rlarida muhrlaydi.

Ushbu misralarda yana sinonimlarni ham uchratishimiz mumkin. Ya'ni men, o'zim, qulun, toychoq kabi so'zlar ham sinonimlardan dalolat beradi.

<sup>51</sup> R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek tili". Hosila sememaning vujudga kelish yo'llari. Toshkent 2019, 133-bet. 31-dars.

<sup>52</sup> R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek tili". Leksik-semantik munosabatlar. Toshkent 2019, 139-bet. 32-dars.

Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. synonymos – “bir nomli”). Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik deb yuritiladi.<sup>53</sup>

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, adibimizning “ Onamga xat” nomli she’ri o’z ichida mujassam etgan o’xshatishlar, ma’no va so’zlarning qo’llanilishi har bir kitobxonni jalb qiladi. Mazkur she’ri ilk marota tinglagan inson shoirning oz bo’lsa-da ichki kechinmalari, dardlari va onasiga bo’lgan sog’inchni tuyadi va his etadi. Bu barcha histuyg’ularni o’z ichiga olgan she’r tinglovchilarining onalariga bo’lgan cheksiz muhabbatini yanada oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI :

1. R . Sayfullayeva “Hozirgi o’zbek tili”. Hosila sememaning vujudga kelish yo’llari.Toshkent 2019,133-bet.31-dars.
2. R. Sayfullayeva “Hozirgi o’zbek tili”. Leksik-semantik munosabatlar. Toshkent 2019,139-bet.32-dars.
3. R. Sayfullayeva “Hozirgi o’zbek tili”. Leksik-semantik munosabatlar. Toshkent 2019,137-bet.32-dars.

Foydalanilgan saytlar ro’yhati:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad\\_Yusuf](https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Yusuf)
2. <https://www.facebook.com/MuhammadYusufSherlari/photos/onamga-xatmen-sizni-oylayman-shomu-sahardaona-soginsam-ham-bora-olmaymantunlari-480394331998699/>
3. <https://arboblار.uz/uz/people/mukhammad-yusuf>

---

<sup>53</sup> R. Sayfullayeva “Hozirgi o’zbek tili”. Leksik-semantik munosabatlar. Toshkent 2019,137-bet.32-dars.